

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Karimov Bobir “MAHALLABAY” ISHLASH TIZIMI NEGIZIDA INSON SALOHİYATINI RO‘YOBGA CHIQRISH KOMPETENSIYALARI.....	5
2. Kulbekova Nasiba INSON SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA TA‘LIM TIZIMINING O‘RNI.....	12
3. Инаков Комил, Абдугафурова Чарос МОЛОДЕЖЬ КАК РЕСУРС РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА.....	19
4. Узакова Зарина ПОТРЕБНОСТИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ (ЧС): РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА.....	27
5. Dulanbayeva Oygul MUALLIFLIK STRATEGIYASI ZAMONAVIY MUTOLAA DIDINI SHAKILLANTIRISH MEKANIZMI SIFATIDA.....	34
6. Hojiyev Zavqiddin DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	40
7. To‘raev Odiljon AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH ORQALI IJTIMOIIY XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	50
8. To‘raxo‘jaeva Ra‘no DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI XODIMLARINING MAXSUS KOMPETENSIYALARI.....	59
9. Abdikadirova Nigora INSON SALOHİYATI: NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	66
10. Tadjikhojaev Botir DAVLAT BOSHQARUVIDA XARIZMATIK SHAXSLAR FAOLIYATINING SOSIOLOGIK TAHLILI.....	71
11. Xolmurodov G‘ulom O‘ZBEKISTONDA MAHALLA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	78
12. Axmedova Shaxnozaxon OILA-NIKOH MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDAGI SOTSIOLOGIK NAZARIY YONDASHUVLAR.....	91


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Kulbekova Nasiba,

Toshkent viloyati Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i,
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

INSON SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA TA'LIM TIZIMINING O'RNI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15132669>

ANNOTATSIYA

Inson salohiyatining yuksalishi jamiyatning faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy taraqqiyoti uchun ham muhim omildir. Mazkur maqolada inson salohiyatini yuksaltirishda ta'lim tizimining o'rni va bu jarayonning mamlakat iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Mazkur maqolada inson salohiyatini yuksaltirishda ta'lim tizimining o'rni, imkoniyatlari va amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar, ilg'or pedagogik yondashuvlar va o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar hamda yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: inson salohiyati, innovatsion ta'lim metodlari, o'quv dasturlari, ta'lim sifati, modernizatsiya, texnologiyalar, intellektual, ijodiy fikrlash, islohotlar.

Кулбекова Насиба,

Руководитель Управления высшего образования,
науки и инноваций Ташкентской области,
доктор философии по социологическим наукам, PhD

РОЛЬ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА

АННОТАЦИЯ

Развитие человеческого потенциала является важным фактором не только экономического, но и социального развития общества. В статье анализируется роль системы образования в повышении человеческого потенциала и влияние этого процесса на экономическое и социальное развитие страны. В данной статье анализируется роль системы образования, её возможности и проводимые реформы в повышении человеческого потенциала. Также рассматриваются современные технологии, передовые педагогические подходы и работа по повышению квалификации преподавателей в системе образования Узбекистана, а также значение развития интеллектуального потенциала молодежи.

Ключевые слова: человеческий потенциал, инновационные методы обучения, учебные программы, качество образования, технологии, интеллектуальный, творческое мышление, реформы.

Kulbekova Nasiba,
is the Head of the Tashkent Regional
Department of Higher Education, Science, and Innovation,
doctor of philosophy in sociology, PhD

THE ROLE OF THE EDUCATION SYSTEM IN ENHANCING HUMAN POTENTIAL

ABSTRACT

The development of human potential is an important factor not only in the economic but also in the social development of society. The article analyzes the role of the education system in increasing human potential and the impact of this process on the economic and social development of the country. This article analyzes the role, opportunities, and ongoing reforms of the education system in enhancing human potential. It also discusses the implementation of modern technologies, advanced pedagogical approaches, and teacher training programs in Uzbekistan's education system, as well as the importance of developing the intellectual potential of young people.

Keywords: human potential, innovative teaching methods, curricula, education quality, technologies, intellectual, creative thinking, reforms.

KIRISH

Insonning bilim, ko'nikma, malaka va ijodiy qobiliyatlarini egallashi hamda ulardan samarali foydalanishi inson salohiyatini namoyon etuvchi omillar sanaladi. Inson salohiyatini rivojlantirishda ta'lim tizimidagi keng qamrovli va izchil islohotlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu islohotlar ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash hamda yosh avlodning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bu jarayonlar faqat bugungi islohotlar bilan cheklanmay, balki chuqur tarixiy ildizlarga ham ega. Barchaga ma'lum, O'zbekiston hududi azaldan ilm-fan va ta'lim markazi bo'lib, buyuk allomalar – Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi olimlar dunyo ilm-fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan. Ularning ilmiy merosi nafaqat o'rta asrlardagi ta'lim tizimiga, balki zamonaviy ta'lim islohotlariga ham asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillikka erishgach, O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, ta'limni modernizatsiya qilish, o'quv dasturlarini mehnat bozorining talablariga moslashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasida keng ko'lamlislohotlar amalga oshirildi.

METODOLOGIYA

Hozirgi kunda Davlat rahbari tomonidan qabul qilingan strategik dasturlar doirasida ta'lim tizimining barcha bosqichlari isloh qilinmoqda. Xususan, o'qituvchilarning malakasini oshirish, innovatsion ta'lim metodlarini tatbiq etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda shahar va qishloq joylaridagi ta'lim sifati o'rtasidagi tafovutni qisqartirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim tizimini shakllantirish, barcha yoshlar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish umuman inson salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro hamkorlikning rivojlanishi ham inson salohiyatini yuksaltirish va ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Xorijiy tajriba o'rganilib, ilg'or pedagogik yondashuvlar milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilinmoqda. Jumladan, Singapur ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosiy sababi sifatida ta'limni jamiyat rivojining vositasi sifatida ko'rish muhimligi ta'kidlanadi. Ularning tajribasi shuni ko'rsatdiki, sifatli ta'lim orqali inson salohiyatini yuksaltirish jadal va barqaror taraqqiyotning kalitidir.

Shunday qilib, O'zbekistonning bugungi ta'lim islohotlari tarixiy ildizlarga tayanib, zamonaviy dunyoning talablariga mos tarzda rivojlanmoqda. Ilm-ma'rifatga asoslangan taraqqiyot tamoyillari hozirgi kunda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda.

ASOSIY QISM

Ta'lim tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri – o'qituvchilarning malakasini oshirish va ilg'or pedagogik metodlarni joriy etishdir. Shuningdek, yangi o'quv dasturlari

va zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayoniga keng joriy qilinmoqda. Bu yangiliklar o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshirilib, o'qituvchilarga yangi pedagogik metodlarni o'rgatish, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish hamda insonlarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 2022-yilgi Murojaatnomasida bu borada shunday ta'kidlagan: "Ijtimoiy davlat – bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar yaratish, odamlarning munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish demakdir. Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz. Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi" [1].

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida innovasion metodlar va ilg'or texnologiyalarni joriy etish jarayoni jadal rivojlanmoqda. O'quv jarayonida interaktiv ta'lim, masofaviy o'qitish, raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar kabi ilg'or metodlar keng qo'llanilmoqda. Bu usullar o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, masofaviy o'qitish qishloq joylarda yashovchi insonlar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekistonda texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish orqali o'quvchilar global iqtisodiyotda raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirmoqda. Masalan, onlayn ta'lim platformalari, video darsliklar va interaktiv mashqlar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini yanada mustahkamlamoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimining muvaffaqiyati bevosita o'qituvchilarning malakasiga bog'liq. Shu sababli, davlat tomonidan o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning kasbiy mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida shunday ta'kidlagan: "Muammolarimizning yechimi, savollarimizning javobi faqat va faqat ta'limda. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham – faqat va faqat ta'lim va tarbiyadir" [2].

O'qituvchilarga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o'rgatish, yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish va ularni rag'batlantirish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Shu maqsadda muntazam seminarlar, treninglar va malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda. Dunyo tajribasidan ma'lumki, ta'lim tizimining muvaffaqiyati o'qituvchilarga bo'lgan e'tibor va ularga yaratilgan imkoniyatlar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, Singapurda ta'lim islohotlari doirasida o'qituvchilarga yuqori darajadagi e'tibor qaratilgan. Singapurning birinchi bosh vaziri Li Kuan Yu o'zining "Uchinchi dunyodan birinchi dunyoga. Singapur tarixi (1965-2000)" kitobida ta'lim tizimining muvaffaqiyatini inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq ekanini ta'kidlagan. Uning so'zlariga ko'ra, "O'qituvchilar – bizning jamiyatimizning eng muhim shaxslaridir. Ular kelajak avlodni tarbiyalaydi, shuning uchun ularga hurmat ko'rsatish va ularni rag'batlantirish zarur" [3].

O'zbekiston ta'lim tizimida o'quv dasturlari doimiy ravishda takomillashtirilib, zamonaviy talab va xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. O'quv dasturlarining mazmuni va tuzilishi ta'limning har bir bosqichida o'quvchilarga fundamental bilimlar berish, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'zbekistonning ta'lim siyosati so'nggi yillarda innovasion yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro ta'lim standartlariga moslashish orqali o'quv dasturlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. An'anaviy ta'lim shakllari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik metodlar, jumladan, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) joriy etilib, ta'lim mazmuni mehnat bozorida o'zgarishlarga mos ravishda yangilanmoqda [4]. Bu esa raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qilmoqda. Interfaol va amaliy ta'lim metodlari keng joriy qilinib, o'quvchilarga nazariy bilimlarni real hayotda qo'llash imkonini yaratmoqda.

O'quv jarayonida raqamli ta'lim resurslari, masofaviy o'qitish platformalari va virtual laboratoriyalar keng qo'llanilayotgani ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam bermoqda. Onlayn ta'lim vositalari orqali darsliklar, interaktiv mashg'ulotlar va sinov testlari yaratilmoqda, bu esa o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini oshirmoqda.

Kasbiy va oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlariga real sektor bilan bog'liq fanlar kiritilib, ish beruvchilarning talablariga mos ravishda mutaxassislar tayyorlanmoqda. Dual ta'lim tizimi joriy qilinib, talabalar nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, xalqaro ta'lim dasturlariga integrasiya qilish orqali xorijiy universitetlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, ta'lim sifati oshirilmoqda. O'quv dasturlarida nafaqat tabiiy va aniq fanlar, balki ijtimoiy-gumanitar fanlar, san'at, madaniyat va sportga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim mazmunida milliy qadriyatlar va ma'naviy tarbiyani inobatga olgan holda, global tendesiyalarga mos o'quv materiallari kiritilmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimidagi o'quv dasturlarining takomillashtirilishi yosh avlodning ilmiy, texnologik va kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan. Bu jarayon o'quvchilarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'quv dasturlarini innovasion yondashuvlar bilan boyitish, texnologiyalarni joriy etish va xalqaro standartlarga moslashtirish orqali mamlakatning ta'lim sifatini oshirish va barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ta'lim sifati doimiy ravishda oshirib borilmoqda. Bu jarayon ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ta'lim muassasalarini innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlash kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim sifati nafaqat nazariy bilimlarning chuqurligi, balki amaliy ko'nikmalar, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan ham bog'liq. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir" deya ta'kidlangan [5].

Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qaror va dasturlar orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sifatini oshirish va ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlari muhim o'rin tutadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan "Milliy ta'lim dasturi" doirasida ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining sifatini ko'tarishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning roli juda muhim. Shu sababli, mamlakatda pedagoglarning malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Masalan, Jahon Banki va O'zbekiston Respublikasi hukumati hamkorligida amalga oshirilayotgan "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini takomillashtirish" loyihasi doirasida o'qituvchilar uchun zamonaviy pedagogik metodlarni o'rgatish dasturlari ishlab chiqilgan [6]. Shuningdek, ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish maqsadida O'zbekiston turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, UNESCO, OECD va Jahon Banki bilan hamkorlikda ta'lim standartlarini takomillashtirish ustida ishlamoqda. Xususan, O'zbekistonning xalqaro ta'lim reytinglarida ishtirok etishi ham ta'lim sifatining oshishiga xizmat qilmoqda. Misol uchun, 2023-yilda PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotida O'zbekiston ilk bor ishtirok etdi, bu esa ta'lim tizimini xalqaro talablar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkonini beradi [7].

Bundan tashqari, ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "Raqamli ta'lim" dasturi doirasida elektron darsliklar, onlayn ta'lim platformalari va masofaviy o'qitish tizimlari rivojlantirilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimining rivojlanishi jarayonida Singapur tajribasidan ham foydalanilmoqda. Singapur modeli muvaffaqiyatli ta'lim tizimi yaratish bo'yicha dunyodagi eng ilg'or tajribalardan biri hisoblanadi. Singapurning birinchi bosh vaziri Li Kuan Yu o'zining mamlakat taraqqiyotida ta'limning hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini ta'kidlab, shunday degan: "Singapurning muvaffaqiyati ta'lim tizimining samarali ishlashiga bog'liq edi. Bizning

maqsadimiz – ta’limni xalqning imkoniyatlarini oshirish va jamiyatni rivojlantirish vositasi sifatida ishlatish edi” [8].

Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, O‘zbekiston ham ta’lim sifatini oshirish orqali xalqning salohiyatini rivojlantirish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga intilmoqda. Singapurda ta’lim tizimini isloh qilish orqali iqtisodiy yuksalish va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishilgan bo‘lsa, O‘zbekiston ham shunday natijalarga erishish uchun ta’lim tizimiga katta sarmoya kiritmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekiston ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar inson kapitalini rivojlantirish, iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda. Ta’lim tizimining samarali rivojlanishi va inson salohiyatining yuksalishi O‘zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatda teng imkoniyatlar yaratish, ta’lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish va o‘qituvchilarga yetarlicha e’tibor qaratish orqali ta’lim tizimi mamlakat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanishi mumkin. Kelajakda O‘zbekiston ta’lim tizimi Singapur kabi ilg‘or davlatlarning tajribasidan foydalangan holda yanada rivojlanishi va inson kapitalini yuksaltirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim.

O‘zbekiston ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Axborot-kommunikasiya texnologiyalarining (AKT) ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Masofaviy ta’lim, raqamli darsliklar, interaktiv ta’lim platformalari va sun’iy intellektga asoslangan o‘quv tizimlari orqali ta’lim jarayoni yanada samarali va qulay bo‘lib bormoqda.

Ta’lim tizimida texnologiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. 2022-yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida ta’lim muassasalarining axborot-kommunikasiya infratuzilmasini yaxshilash, raqamli ta’lim platformalarini yaratish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsad qilingan. Texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilishga yordam bermoqda. Xususan, elektron ta’lim platformalari orqali o‘quvchilar an’anaviy darslardan tashqari qo‘shimcha bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Jumladan, UzEDU, Khan Academy Uzbek, Coursera va EdX kabi platformalar orqali xalqaro darajadagi darslardan foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Shuningdek, texnologiyalar orqali inklyuziv ta’lim imkoniyatlari ham kengaymoqda. Nogironligi bor o‘quvchilar uchun maxsus mobil ilovalar, ovozli darsliklar va onlayn platformalar ishlab chiqilmoqda. Masalan, 2023-yilda O‘zbekistonda ilk bor ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan maxsus elektron darsliklar joriy qilindi.

Dunyo tajribasiga qaraganda, rivojlangan davlatlarda ta’lim texnologiyalarining keng joriy etilishi ta’lim sifatining oshishiga olib kelgan. Masalan, Singapur ta’lim tizimida innovasion texnologiyalarning samarali joriy etilishi ta’lim sifatining jahon miqyosida yuqori bo‘lishiga xizmat qilgan. Singapurning birinchi bosh vaziri Li Kuan Yu ta’limdagi texnologik yondashuvning ahamiyatini ta’kidlab, shunday degan: “Biz ta’lim tizimimizni texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirmasak, kelajakka tayyorlanishimiz qiyin bo‘ladi” [9,10].

O‘zbekiston ham xalqaro tajribaga asoslangan holda, ta’limda innovasion texnologiyalarni keng joriy etish orqali kelajak avlodning raqobatbardosh bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlashga harakat qilmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt va tahliliy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali o‘quvchilarning bilim darajasini avtomatik baholash va individual ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish yo‘nalishlari ham rivojlantirilmoqda. Umuman olganda, texnologiyalarning ta’lim tizimiga keng joriy etilishi o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qulay, sifatli va innovasion qilishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekistonning global raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasidagi maqsadlariga erishishiga yordam beradi. Inson salohiyatini yuksalishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirishda innovasion metodlar keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, interfaol ta’lim usullari, muammoli ta’lim, loyihaviy ta’lim va o‘quvchilarga individual yondashuv kabi pedagogik texnologiyalar joriy qilinmoqda. Xalqaro tajriba

shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan mamlakatlar pedagogik jarayonga e'tibor qaratib, o'qituvchilarning malakasini oshirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirgan. Masalan, Finlyandiya va Singapur ta'lim tizimida o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi va pedagogik yondashuvlarning sifatli bo'lishi asosiy muvaffaqiyat omillaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik yondashuvlarni modernizasiya qilishga bo'lgan e'tibor O'zbekiston Respublikasining ta'lim siyosatida ham o'z aksini topgan. 2021-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" doirasida pedagogika sohasida quyidagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi tomonidan pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan.

Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni keng joriy etish, jamoaviy ish, muammoli ta'lim, rolli o'yinlar va zamonaviy dunyoda ijodiy fikrlash insonning muvaffaqiyatli va innovasion faoliyat yuritishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyot, ilm-fan, san'at va texnologiyalar sohasida taraqqiyotga erishgan davlatlar ta'lim tizimiga ijodiy fikrlashni rivojlantirishni strategik ustuvor yo'nalish sifatida kiritgan. O'zbekiston ham ta'lim tizimida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga katta e'tibor qaratib, yangi pedagogik metodlar, innovasion yondashuvlar va texnologik imkoniyatlarni joriy etmoqda.

Ijodiy fikrlash – bu mavjud bilim va tajribalar asosida yangicha qarashlar shakllantirish, muammolarga nostandart yondashish, yangi g'oyalarni ilgari surish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyatni rivojlantirish shaxsiy va jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

Ijodiy fikrlash insonning quyidagi ko'nikmalarini rivojlantiradi:

Muammolarni hal qilish qobiliyati – murakkab vaziyatlarda tezkor va samarali yechim topish, yangi g'oyalar yaratish – mavjud bilimlar asosida yangilik qilish, mustaqil fikrlash – an'anaviy tafakkur doirasidan chiqib, o'ziga xos yechimlarni taklif qilish, moslashuvchanlik – o'zgaruvchan dunyoda yangi sharoitlarga tez moslashish, tanqidiy fikrlash – har qanday ma'lumot va vaziyatni chuqur tahlil qilish.

XULOSA

Jahon tajribasiga qaraganda, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan davlatlar ilmiy-texnologik taraqqiyotda yutuqlarga erishmoqda. Masalan, Singapur ta'lim tizimi ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun interfaol metodlardan keng foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, inson salohiyatini rivojlantirishda ta'lim tizimining ahamiyati katta. Inson yoshlikdan olgan bilim va ko'nikmalarini umri davomida qo'llaydi. Shu bois, ta'lim muassasalarida yoshlarga innovatsion metodlar va kreativ yondashuvlar asosida ta'lim berish zarur. Ayniqsa, bu borada raqamli texnologiyalardan foydalanish ham yuqori samara beradi. Umuman inson salohiyatini rivojlantirish borasida kitobxonlikni ham keng targ'ib etmoq lozim. Kitobxon badiiy asarlarni o'qib, asar qahramonlari hayotidagi voqea xodisalarga nisbatan munosabat bildirishi va asardagi qahramonlar o'rniga o'zini qo'yib, turli muammoli vaziyatlardan chiqish yo'llarini izlashga bo'lgan intilishi ham uni rivojlanishiga amaliy yordam beradi. Bundan tashqari, bilim olishda dunyoviylik tamoyillari asosida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish ham muhim. Zero, dunyoviylik taraqqiyotning negizi hamda inson salohiyatining tez rivojlanishini asosi hisoblanadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi <https://president.uz/en> 20.12.2022 (Address by the President of the Republic of Uzbekistan H.E. Mr. Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the People of Uzbekistan)

2. Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi <https://president.uz/oz/lists/view/75194> 31.08.2024.
3. Li Kuan Yu: Uchinchi dunyodan birinchi dunyoga. Singapur tarixi (1965-2000) HarperCollins Publishers (AQSh) va Times Editions (Singapur), 2000-yil. (Li Kuan Yu. “From Third World to First: The Singapore Story: 1965-2000.”).
4. World Bank, 2021, Education System Review: Uzbekistan <https://documents1.worldbank.org/curated/en/379211551844192053/pdf/Uzbekistan-Education-Sector-Analysis.pdf>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi <https://president.uz/en> 20.12.2022. (Address by the President of the Republic of Uzbekistan H.E. Mr. Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the People of Uzbekistan).
6. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali <https://gov.uz/uz> (The Government portal of the Republik of Uzbekistan)
7. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali 2023 yil <https://gov.uz> (The Government portal of the Republik of Uzbekistan)
8. Li Kuan Yu: Uchinchi dunyodan birinchi dunyoga. Singapur tarixi (1965-2000) HarperCollins Publishers (AQSh) va Times Editions (Singapur), 2000-yil. (Li Kuan Yu. “From Third World to First: The Singapore Story: 1965-2000.”).
9. Li Kuan Yu: Uchinchi dunyodan birinchi dunyoga. Singapur tarixi (1965-2000) HarperCollins Publishers (AQSh) va Times Editions (Singapur), 2000-yil. (Li Kuan Yu. “From Third World to First: The Singapore Story: 1965-2000.”).
10. World Bank Report on Education Reform in Singapore, 2019: <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/921091571223553296-0090022019/original/EAPEAPSGSGLPBRIEF.pdf>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000